

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI**  
**SAMARQANI DAYLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**  
Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat Universiteti  
rektori



**R.Xalmuradov**

“17” 07 2023 yil

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA**  
**BAHOLASH MEZONI**

**KIRISH IMTIHONLARIDA “TARIX”**  
**FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO‘NALISHLAR**  
**(KO‘ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR**  
**(ta‘lim yo‘nalishlarga mos fan bo‘yicha)**

Dastur Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O'quv – uslubiy Kengashining 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ – sonli majlisida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

**Tuzuvchilar:**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Tarix fakulteti “Jahon tarixi” kafedrasida o'qituvchisi,  
p.h.d. S.Usarov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat  
universiteti Tarix fakulteti “Jahon tarixi” kafedrasida  
mudiri p.h.d. Sh.Hamroqulova

**Taqrizchilar:**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Tarix fakulteti “O'zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti,  
t.f.d. R.Xolliqulov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti  
“O'zbekiston tarixi” kafedrasida dotsenti G.Normurodova

**KIRISH**

60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘limi yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy (kasbiy) imtihon dasturi o‘rta maxsus va kasb-hunar kollejlari hamda umumta‘lim maktablarining” O‘zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” fanlari dasturlari asosida tuzilgan bo‘lib, “Qadimgi dunyo tarixi”, “O‘rta asrlar tarixi”, “Yangi tarix”, “Eng yangi tarix “ davrlaridan abituriyentlarning amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlashda foydalaniladi.

### **Fanning maqsadi va vazifalari**

60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘limi yo‘nalishida o‘quvchilarni tayyorlash bo‘yicha ijodiy (kasbiy) imtihonlar abituriyentlarning shu sohada bo‘lgan qiziqishi, bilim darajasi va kelajakda tarix ta‘limi kasbi bo‘yicha faoliyat yuritish kompetentsiyalarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan va abituriyentlarning tarix ta‘lim sohasida nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Tarix fani bo‘yicha tuzilgan ushbu dastur ikki qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismi O‘zbekiston tarixi, ikkinchi qismi esa jahon tarixiga bag‘ishlangan. Dastur ko‘zi o‘z abiturientlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Davlat ta‘lim standartlari talablari asosida tuzilgan. O‘zbekiston tarixi qismida asosan xalqimizning eng qadimgi zamonlardan to hozirgi kunlarga bosib o‘tgan uzoq va murakkab tarixiy yo‘lini, eng yangi tarixini hamda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma‘naviy hayotini xolisona o‘rganish, mamlakatimizning demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari, jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish, xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini ilmiy va amaliy ahamiyati kabi mavzular o‘rin olganki, ushbu mavzular abituriyentlar bilimini baholashda muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek dasturning ikkinchi jahon tarixi qismida jahon tarixining qadimgi davri, o‘rta asrlar tarixi hamda buyuk geografik kashfiyotlar, Angliya, Fransiya, Germaniya, AQSH, Rossiya kabi davlatlarning zamonaviy tarixi, I va II-jahon urushlari va uning oqibatlari, urushdan keyingi Yevropa, Osiyo, Amerika davlatlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida so‘z yuritiladi.

Ushbu dastur ko‘zi o‘z abiturientlar uchun mo‘ljallangan. Ushbu dastur bo‘yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlar abituriyentlarning Tarix fanlari bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi

### **Abituriyentning bilimiga qo‘yiladigan talablar**

60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo‘nalishlar bo‘yicha) ta‘limi yo‘nalishiga imtihon topshiruvchi abituriyentlar O‘zbekiston tarixidan: O‘zbekiston tarixini o‘rganishdagi asosiy nazariy metodologik masalalar. Markaziy Osiyo ibtidoiy jamiyat davrida. Urug‘chilik jamoalarining makonlari. Moddiy va ma‘naviy madaniyat. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatchilikning vujudga kelishi. Qadimgi Sug‘diyona (So‘g‘d), Baqtriya, Xorazm. “Avesto”. Markaziy Osiyo xalqlarining Ahamoniylarga qarshi mustaqillik uchun kurashi. Makedoniyalik Aleksandr istilosi va Spitamen qo‘zg‘oloni. O‘rta Osiyo Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya davlati tarkibida. Qang‘. Parkana. Buyuk Ipak yo‘lining paydo bo‘lishi va uning roli. Kushon podsholigi. Ilk o‘rta asrlar davlatlarining shakllanishi (Eftaliylar davlati, Turk xoqonligi). O‘rta Osiyo xalqlarining arablar istilosiga qarshi kurashi. Movarounnahrda islom dinining yoyilishi. Movarounnahr Somoniylar davrida. G‘aznaviylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar davlatlari. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. Qoraxoniylar bosqini va Xorazmshoh-anushteginlar davlatining yuksalishi. XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi

xususiyatlar. Oʻrta Osiyoda uygʻonish davrida fan va madaniyat. Moʻgʻul bosqinchilariga qarshi Markaziy Osiyo xalqlarining kurashi. Movaraunnahr Chigʻatoy ulusi tarkibida. Amir Temur davlati. Movarounnahr Temuriylar davrida. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatlari. XVII-XIX asr birinchi yarmida siyosiy hayot. Oʻrta Osiyo xonliklarining maʼmuriy boshqaruv tizimi, aholining etnik va ijtimoiy tarkibi, xoʻjaligi. Buxoro amirligi, Xiva va Qoʻqon xonliklarining rivojlanish xususiyatlari. XVI-XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar. Qoraqalpoq va boshqa turkiy koʻchmanchi qabilalar yozma tarixiy manbalarda. Qoraqalpoqlarning shakllanish jarayonlari. XVIII-XIX asrlarda quyi Sirdaryo qoraqalpoqlari. Qoraqalpoq madaniyati. Oʻrta Osiyo xonliklarining savdo-diplomatik aloqalari. XVI-XIX asr birinchi yarmida Oʻrta Osiyo xalqlari madaniyati. Ingliz-rus raqobati. Oʻrta Osiyoga Rossiya imperiyasining istilochilik yurishlari. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi. Oʻrta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olinishining iqtisodiy va siyosiy oqibatlari. 1873-1876 yillarda Qoʻqon xonligidagi xalq qoʻzgʻoloni. Turkistonning agrar va sanoat rivojlanishidagi muammolar va Rossiya imperiyasi siyosati. XIX asr oxirida Turkistonda milliy ozodlik kurashlari. XIX asr oxiri–XX asr boshida Turkiston xalqlari madaniyati. XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot. Milliy maʼrifatparvarlik harakati. Jadidchilik. Turkiston birinchi jahon urushi yillarida. 1916 yil milliy ozodlik kurashi. 1917 yil siyosiy jarayonlarning Turkistonga koʻrsatgan taʼsiri. Turkistonda sovet tuzumini oʻrnatilishi. Turkiston muxtoriyati. Sovetlarga qarshi milliy ozodlik harakatlari. 1917-1924 yillarda Buxoro va Xiva xonligidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. 1924 yil Oʻrta Osiyoda oʻtkazilgan milliy davlat chegaralanishidagi muammo va ziddiyatlar. Oʻzbekiston totalitar tuzum sharoitida – ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot. Siyosiy qatagʻonlar va ularning oqibati. Qoraqalpogʻiston ASSRning OʻzSSR tarkibiga kiritilishi. Oʻzbekiston xalqining fashizmga qarshi kurashdagi ishtiroki. 1946-1985 yillarda Oʻzbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish: yutuqlar va ziddiyatlar. Milliy ziyolilarni qatagʻon qilinishi. Madaniy hayotda “sotsialistik realizm”ni hukmronligi. Oʻzbekiston “Qayta qurish” yillarida. Oʻzbekistonning mustaqillikka erishishi – Oʻzbekiston tarixidagi yangi tarixiy bosqich. Oʻzbekiston Respublikasi suvereniteti va mustaqilligi. Oʻzbekistonda mustaqil demokratik davlat sifatida siyosiy tuzumning shakllanishi. Oʻzbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. Mustaqil Qoraqalpogʻiston tarixi, uning davlat tuzumi. Ijtimoiy yoʻnaltirilgan bozor iqtisodiyotini qurishga qaratilgan siyosat. Iqtisodiy islohotlar: bosqichlari va natijalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining Oʻzbekiston iqtisodiyotiga taʼsiri va uni bartaraf qilishga qaratilgan 2009-2012 yillarga moʻljallangan dasturini amalga oshirilishi. Oʻzbekistonning maʼnaviy hayoti. Oʻzbekistonning jahonda va MDHda egallagan mavqei. Mustaqil Oʻzbekistonning tashqi siyosati. Oʻzbekistonning xalqaro tashkilotlarda ishtiroki. Oʻzbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashdagi ishtiroki. Oʻzbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari. Mustaqil Oʻzbekiston-demokratik islohotlar va fuqarolik jamiyat asoslarini shakllanishi yoʻlida.

**Abituriyent** Jahon tarixidan: Qadimgi Misr. Eng qadimgi Misrda dastlabki davlatlarning paydo boʻlishi. Qadimgi Misrning geografik oʻrni va tabiiy sharoiti. Misrda ilk podsholikning tashkil topishi (mil. avv. 3100 y.). Qadimgi podsholik davrida Misr. Piramidalar qurilishi. Yangi podsholik davrida Misr. Exnaton islohotlari. Soʻnggi podsholik davrida Misr. Qadimgi Misr madaniyati. Eng qadimgi Mesopotamiya. Mesopotamiyaning geografik oʻrni va tabiiy sharoitlari. Mesopotamiyada markazlashgan shahar-davlatlarning vujudga kelishi. Sargon I davrida Mesopotamiya. Qadimgi Babil podsholigi. Hamurappi qonunlari (mil. avv. 1792-1750 yillar). Qadimgi Ossuriya. Yangi Babil podsholigi. Qadimgi Mesopotamiya xalqlari madaniyati. Qadimgi Hett podsholigi va

uning madaniyati. Qadimgi Falastin va uning yahudiylar tomonidan istilo qilinishi. Isroil yahudiy podshohligining ravnaq topishi. Qadimgi Suriya va Finikiya. Suriya va Finikiyaning shahar davlatlari. Qadimgi Urartu davlatining tashkil topishi va kuchayishi. Qadimgi Eron. Qadimgi Elam davlati va Midiya podshohligi. Doro I va uning islohotlari. Qadimgi Hindiston. Iskandarning Hindistonga yurishlari. Maurya saltanati. Kushonlar va Guptalar davrida Hindiston. Qadimgi Hindistonda din. Eng qadimgi Xitoy. Xitoyning geografik o'рни va tabiati. Chjou pojshohligi davrida Xitoy. Buyuk Xitoy devorining qurilishi. Xunlar davlati. Yunonistonning eng qadimgi tarixi. Krit Miken madaniyati, mil.avv.VIII-XI asr Yunoniston polislarining tashkil topishi, Afina quldorlik davlatining tashkil topishi. Solon qonunlari. Qadimgi Sparta davlati. Ilotlar qo'zg'oloni. Yunoniston Eron urushlari. Marafon jangi (mil. avv. 490 yil). Salomin jangi (mil. avv. 480 yil). Afina quldorlik demokratiyasi. Perikl boshqaruvi. Qadimgi Yunoniston madaniyati. Qadimgi Rim. Qadimgi Rimning geografik o'рни va tabiiy sharoiti. Etrusklar jamiyati. Rim respublikasining tashkil topishi. Plebeylar va patritsiylar o'rtasidagi kurash. Rim tomonidan Italiyaning istilo qilinishi. Karfagen davlati. Puni urushlari va uning oqibatlari. Mil.avv. II asrda Rim imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, Spartak qo'zg'oloni. Rim saltanatining tashkil topishi. Yuliy Sezar imperatorligi. Rim imperiyasining tushkunlikka ketishi va halokati. Qadimgi Rim-Italiya madaniyati. Ilk o'rta asrlar. V-XI asrlarda Yevropa. German qabilalari va Rim imperiyasi. Franklar. Xlodvig hukmronligi. Buyuk Karl imperiyasi. VI-XI asrlarda slavyanlar. Slavyan davlatlarining tashkil topishi. Bolgar podshohligi (VII asr oxiri), Kiyev Rusi (IX asr), Chexiya (X asr) va Polsha davlatlarining tashkil topishi. Ilk o'rta asrlarda Vizantiya imperiyasi. Vizantiyada maorif va ilm-fan taraqqiyoti. VI-X asrlarda Osiyo xalqlari. Ilk o'rta asrlarda Xitoy va Hindiston. O'rta asrlarning ikkinchi davrida jahon xalqlari (XI-XV asrlar). Cherkov va Salib yurishlari. Yevropada markazlashgan davlatlarning tashkil topishi. Yuz yillik urush (1337-1453 yillar). Jakeriya qo'zg'oloni (1358 yil). Fransuz xalqining bosqinchilarga qarshi kurashi. Janna D'ark – xalq qahramoni. Angliyada markazlashgan davlatining tashkil topishi. Uott Tayler qo'zg'oloni (1381 yil). O'rta asrlarda Osiyo, Afrika va Amerika xalqlari. XII-XV asrlarda Xitoyning ichki va tashqi siyosati. Min sulolasining tashkil topishi. O'rta asrlarda Afrika davlatlari: Gana, Mali, Songai, Aksum. O'rta asrlarda Amerika. Mayya xalqlari va ularning madaniyati. Atsteklar davlati. Inkalar davlati.

XV asr oxiri XVI asrlardagi ihtirolar, buyuk geografik kashfiyotlar va mustamlakachilik bosqinlari. Amerikaning kashf etilishi. Dunyo aylana birinchi sayohat. Fernan Magellan (1519-1522 yillar). Yevropada reformatsiyaning boshlanishi. Chexiyada umumxalq kurashining etilishi. Germaniyada reformatsiya. Martin Lyuter ta'limoti. Fransiyada mutloq monarxiyaning shakllanishi va diniy urushlar (XVIII asr). Niderlandiya burjua inqilobi. Gollandiya respublikasining tashkil topishi. O'rta asrlarning uchinchi davrida Evropa xalqlari madaniyati. Uyg'onish davri madaniyati (Italiya). Leonardo da Vinchi, Mikolanjelo va Rafael. Germaniya, Niderlandiya va Ispaniyalik buyuk rassomlar.

XVII asr ingliz inqilobi. 1640 yilgi inqilob sabablari va boshlanishi. Angliya respublikasi. Kromvel protektorati. Styuartlarning qayta tiklanishi va 1688 yil to'ntarishi. Shimoliy Amerikada mustaqillik uchun kurash (1775-1783 ) va AQSHning tashkil topishi. AQSH Konstitutsiyasining qabul qilinishi (1787). XVIII asr Fransuz inqilobi. Monarxiyaning ag'darilishi. Yakobinchilar diktaturasi. Napoleon Bonapart diktaturasining o'rnatilishi va Fransiyadagi Birinchi imperiya. Napoleon I armiyasining Rossiyada barbod bo'lishi. Vena kongressi. «Muqaddas ittifoq»ning tuzilishi. Yevropa davlatlari. Fransiya, Angliya, Germaniya, Italiya va Avstriya imperiyasidagi 1848-1849 yillar inqilobi hamda

uning ahamiyati. Osiyo mamlakatlari – Hindiston va Xitoyda hamda Afrikada milliy-ozodlik harakatlari.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Yevropa va Amerika davlatlari. Fransiya-Prussiya urushi va uning yakunlari. Germaniyani birlashtirilishi va iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti. 1871 yilgi Imperiya Konstitutsiyasi. XX asr boshlarida AQSHning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. T.Ruzveltning ichki siyosati. Panamerika ittifoqi (1910 yil). V.Vilson hukumatining ichki va tashqi siyosati. Lotin Amerikasi mamlakatlari. Braziliya, Argentina va Markaziy Amerika davlatlari. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya. Rus-Yapon urushi. XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Osiyo va Afrika mamlakatlari – Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Afg‘oniston, Turkiya. Arab mamlakatlari. Mahdiylar qo‘zg‘oloni va Sudanning Angliya tomonidan egallanishi.

Birinchi jahon urushi va uning oqibatlari (1914-1918 yillar). Versal tinchlik shartnomasi (1919 yil, 28 iyun). Yevropa va AQSH birinchi jahon urushidan keyin (1918-1929 yil). 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi va uning oqibatlari. Sharqiy Evropa va Bolqon yarim oroli ikkinchi jahon urushi orasida (1918-1939 yillar). Ikkinchi jahon urushi (1939-1945 yillar). Ikkinchi jahon urushining 1941-1944 yillaridagi asosiy janglari. Ikkinchijahon urushining tugashi. Potsdam konferensiyasi (1945 yil, iyul-avgust).

Dunyo “Sovuq urush” siyosati davrida. Yevropaning birlashuvi. “Trumen diktaturasi” (1947 yil). “Marshal rejasi” (1947 yil, iyun), Shimoliy Atlantika shartnomasi (NATO) 1949 yil, aprel), O‘IYOK (1949 yil), Varshava shartnomasi (1955 yil, 14 may) tashkilotlari. XX asrning ikkinchi yarmida AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari. Sharqiy Yevropa va Bolqon yarim oroli mamlakatlari ikkinchi jahon urushidan so‘ng. Totalitar tuzumlarning qaror topishi. SSSR: totalitarizmdan demokratiyaga. Qayta qurish va uning natijalari.

Osiyo davlatlari. Turkiya: demokratiyaning murakkab yo‘li. Xitoy 50-90 yillarda. Vetnam xalqining ozodlik kurashlari. Ikkiga bo‘lingan Koreya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston davlatlarining murakkab rivojlanish yo‘llari. Yaqin Sharq mamlakatlari va ularning mustaqillik yo‘llari.

1990-2020 yillarda jaxon mamlakatlarining integratsiyalashuvi jarayonlari. Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Xalqaro terrorizm va giyohvandlikka qarshi kurash haqida bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

## **IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI**

Ko‘zi ojizlar uchun ijodiy imtixon 5 ballik tizimda baholanadi.

Ko‘zi ojizlar uchun kirish imtihonlari og‘zaki tarzda o‘tkaziladi va har bir imtixon biletiga ikkitadan nazariy savol kiritiladi.

### **Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:**

#### **1. Abiturientning javobi 5 (“a’lo”)ga baholanishi uchun:**

- Abiturient tarixning qadimgi davridan to hozirgi kun tarixigacha bo‘lgan bosqichni mukammal bilishi lozim;
- Har bir tarixiy voqealar aniq tarixiy dalillarga asoslanishi kerak.
- Javoblarda tarixiy voqealar bo‘lib o‘tgan jo‘g‘rofiy hudud ham aniq ifodalanishi zarur.
- Javoblarda keraksiz har xil gaplardan ko‘ra, ko‘proq aniq faktlar hisobga olinadi.
- Mustaqillik davri tarixiga, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatiga, madaniyatiga, iqtisodiga, huquqiga tegishli savollarga yanada aniqroq javob berilishi kerak.
- Qo‘shimcha savollarga ham to‘liq va to‘g‘ri javob berish lozim.

#### **2. Abiturientning javobi 4 («yaxshi»)ga baholanishi uchun:**

- Tarixning hamma bosqichlari bo'yicha umumiy bilimga ega bo'lishi va uni dadil izohlay olishi lozim;
- Tarixni arxeologik va etnografik materiallar bilan qo'shib asoslay olishi kerak;
- Tarixiy davrlashtirish bosqichlarini aniq tushuntira olishi lozim;
- Mustaqil O'zbekiston Respublikasining eng yangi tarixi (1991-2020 yillar) bilan bog'liq voqealariga aniq javob bera olishi kerak.
- Biror-bir tarixiy davrga tegishli berilgan qo'shimcha savolga aniq va puxta javob berilishi lozim.

### **3. Abiturientning javobi 3 («o'rta»)ga baholanishi uchun:**

- Abiturient belgilangan savollarga maktab tarix fani dasturi bo'yicha umumiy tushunchaga ega bo'lib, javoblarni har tamonlama asoslanishga harakat qilishi kerak;
- Javoblarda har bir tarixiy davr fakt, manbalar, arxeologik materiallarga asoslanishi lozim;
- Javob berayotganda bo'lib o'tgan har bir tarixiy voqealarga aniqlik kiritilishi kerak, umumiy gaplar yoki taxminiy javoblardan uzoqroq bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

### **4. Abiturientning javobi quyidagi hollarda 2 («qoniqarsiz»)ga baholanadi:**

- Abiturient tarixiy taraqqiyotning qadimgi davridan to hozirgi kunimizgacha bo'lgan tariximizni asoslay olmasa;
- Tarixiy davrlashtirish bosqichlaridan, davlatchilik tarixidan etarlicha ma'lumotga ega bo'lmasa;
- Tarixiy voqealarni aniqligiga ishonchsizlik bilan javob bersa;
- Mustaqil O'zbekiston Respublikasining yangi tarixiga tegishli tarixiy voqealarni ifoda etuvchi javoblari maqsadga muvofiq deb topilmasa;
- Tarixiy mavzular bo'yicha berilgan qo'shimcha savollarga mujmallik va noaniqlik bilan javob berilsa.

### **Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Tarix fani bo'yicha imtihon komissiyasi tarkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Tarix yo'nalishi bo'yicha imtihon natijalaridan norozi abiturientlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha appelyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

### **Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish**

Appelyatsiya komissiyasi universitet qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abiturient ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abiturientning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma yuz abiturientning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

**Qabul komissiyasi mas'ul kotibi**



**M. Boboxonov**